

YOSHLARNI ESTETIK TARBIYALASHDA MUSIQA SAN'ATINING ROLI.

Karimov Zohidjon (SamDU magistranti)

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yoshlarni estetik tarbiyalashda boshqa sohalarga qaraganda san'at sohalari ko'p jihatdan samaralidir, chunki san'atning barcha turlari ezgulikka va ijodkorlikka yo'l ochadi. O'zlarining ijodkorligi orqali yoshlarimiz kelajakda hech shubhasiz yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlarimizning san'atni to'g'ri idrok eta olishi, ularning estetik tarbiyasi yetukligidan dalolat beradi. Maqsadimiz anashunday estetik tarbiyalangan san'atga ixlosmand yoshlarning safini ko'paytirishdir.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol va komil shaxs darajasiga yetishishi, ularning bilim darajasini yanada yuksaltirish hamda yoshlarni ma'nan va aqlan rivojlanishi uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunga kelib ta'lim tarbiyaning turli sohalarida islohatlar amalga oshirildi. 1997-yil qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol, salohiyatli, teran fikrli, keng dunyoqarashli, milliy ruhda va estetik tarbiyalash asosiy maqsad qilib olindi va bu maqsadga erishish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu maqsadga erishish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarini, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etadi. Bunday vositalardan biri bu san'atdir. San'atning barcha turlari ya'ni "amaliy san'at", "tasviriy san'at", "badiiy san'at", "musiqiy san'at" bularning barchasi yoshlarni estetik tarbiyalashga xizmat qiladi.

San'at haqida fikr yuritar ekanmiz yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning, jumladan musiqa san'atining muhim vosita bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Nega deganda musiqa san'ati insonni komillikka yetaklovchi, ularni faqat ezgullikka chorlovchi ilohiy kuchdir. Boshqacha aytganda musiqa san'ati ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'lovchi

rishta sanaladi. Musiqiy san'at sohasida qilinayotgan islohatlar va erishilayotgan yutuqlarning barchasi jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi va yurtimiz dovrug'ini jahonga ovoza etadi. Musiqa san'ati voqelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. Musiqa san'ati estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga va yosh avlodga mo'ljalanganligi bilan dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuyg'usini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'lida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirish bilan izohlanadi. Bundan tashqari musiqa san'atining kuchliligi shundagi u insonni ichki olamiga kirib boruvchi, uning ruhiy olamiga ta'sir etuvchi ilohiy kuch desak adashmaymiz.

Agar fan yoshlarning kasb-korlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilsa, san'at uning har tomonlama tabiiy qobiliyatini rivojlantiradi, dunyoni yaxlit in'ikos etishga o'rgatadi. Musiqa san'ati ham kasb egallashga ko'maklashsada u tor kasb-korlikda o'ralashib qolishdan xalos etadi. Ijtimoiy ongning boshqa shakllariga qaraganda musiqiy san'at inson shaxsining har tomonlama, hamohang ravnaq topishiga ko'proq va samaraliroq ta'sir etadi.

Yoshlarni estetik tarbiyalashda va estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida musiqiy san'at:

- Yoshlarning estetik tuyg'usini, estetik didini, estetik orzusini, estetik tarbiyasini va bilim doirasini kengaytiradi;
- Yosh-avlodni jamiyat rivojida faol ishtirok etishiga da'vat etadi;
- Voqeylikka e'tiborli bo'lishga undaydi;
- Yoshlarda estetik did-farosat va talab-ehtiyojlarini rivojlantiradi;
- Ijodkorlik qobiliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi;
- Yoshlarni badiiy qadriyatlarni idrok qilishiga va ularni yaratishiga xizmat qiladi;
- Yoshlarning san'atdan bahramand bo'lishiga, ular orqali milliy va insoniy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi;
- Yoshlarni insoniy fazilatli va chinakkam e'tiqodli bo'lishiga xizmat qiladi;

Estetik tarbiyaning maqsadi ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan yosh-avlodni tarbiyalashdir. O'zbekiston mustaqil davlati fuqorolarining estetik ongini yanada shakllantirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, jamiyatning musiqiy san'ati va madaniyatini yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiya umumiy tarbiyaviy faoliyatning maqsad, usul vositalari tizimidan, shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg'unligidan, tarbiyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqsagina, mo'ljaldagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tashkilotlar kabi bo'g'inlarda yaxlit holda amal qilgandagina kutilgan natijalarga olib keladi. Estetik tarbiyada oila, maktab, o'rta maxsus va oily o'quv yurtlarining o'zaro hamkorligi ham yaxshi natijalar keltiradi. Sababi shaxs kamolotida muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Oiladagi muhit qanchalik sog'lom bo'lsa o'z navbatida usha muhit ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan oila muhitida ulg'aygan bola maktabda, o'rta maxsus va oily o'quv yurtlarida ham o'zining madaniyatini va ma'naviyatini ko'rsata oladi. Shuning uchun ham tarbiya masalasida albatta muhitga alohida e'tibor qaratishimiz lozimdir. Nega deganda nosog'lom muhit yosh-avlod tarbiyasiga va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni estetik tarbiyalashda boshqa sohalarga qaraganda san'at sohalari ko'p jihatdan samaralidir, chunki san'atning barcha turlari ezgulikka va ijodkorlikka yo'l ochadi. Vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlarimizning san'atni to'g'ri idrok eta olishi, ularning estetik tarbiyasi yetukligidan dalolat beradi. Maqsadimiz anashunday estetik tarbiyalangan san'atga ixlosmand yoshlarning safini ko'paytirishdir.

